




BOSHLANG'ICH SINFLARDA MA'NODOSH, SHAKLDOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLARNI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Erkinova Nazokatxon Anvarjon Qizi

FarDU 1-bosqich magistranti

nazokatxonerkinovafdu@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14698781>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 15-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 18-yanvar 2025 yil

interaktiv metodlar,

ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar,

zid ma'noli so'zlar, boshlang'ich

ta'lim, til madaniyati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanishning ilmiy va amaliy asoslari yoritiladi. Klaster, rol o'ynash, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlarning dars jarayonida qo'llanilishi tahlil qilinib, ularning samaradorligi amaliy tajribalarga asoslangan holda yoritilgan. Ushbu metodika o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim tizimini rivojlantirishni mamlakat kelajagini belgilovchi muhim soha sifatida ta'kidlab keladi: "Ta'limni isloh qilish orqali biz kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratamiz"[1]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etishni rag'batlantiradi[2]. Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va ularning lingvistik tafakkurini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni o'rgatish orqali o'quvchilarning til boyligini oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish samarador usul sifatida tan olinmoqda. Ushbu maqolada interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, ularning o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

Bolalarning dunyoqarashini boyitish har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy, kreativ fikrlash ko'nikmasini egallashda interaktiv metodlarni qo'llab ularga bu bilimlarni egallashlariga imkoniyat yaratishimiz lozim. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

IX asrlarda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy

merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib borganlar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bularning ichida Muhammad al-Xorazmiy insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyati to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan.

Alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi. Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat bergan olimdir.[3. 215-bet]

Bundan tashqari Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish;
- takrorlash;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishga e'tibor

berish kerakligi uqtiriladi.

U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ko'rsatib o'tadi.[3.219-bet]

Buyuk ajdodlarimiz ilgari surgan ushbu g'oyalar hozirgi davrda ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Shunday qilib, yuqoridagi olimlarning fikrlari, ta'kidlab o'tgan metod va ko'rsatmalari ushbu mavzuni yoritishim uchun ham ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar o'ziga xos o'rganish obyektidir. Ushbu til birliklarini o'rgatish orqali o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlar rivojlanadi:

Ma'nodosh so'zlar: shakli har xil, ma'nosi bir – biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Ma'nodosh so'zlar lug'aviy zaxirani boyitish va kontekstga mos ravishda so'z tanlash ko'nikmasini

shakllantiradi. Masalan, go'zal, chiroyli, latofatli kabi ma'nodosh so'zlarning nozik farqlarini tushuntirish orqali o'quvchilar til boyligini oshiradi.

Shakldosh so'zlar: aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarni bildirgan so'zlarga aytiladi. Bir xil shakldagi so'zlarning turli ma'nolarga ega ekanligini o'rganish o'quvchilarning semantik tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, to'q (rang) va to'q (to'ygan), yoz (fasl) va yoz (yozmoq fe'l), chopmoq (yugurmoq) va chopmoq (yer chopmoq), qovoq (poliz ekini) va qovoq (inson a'zosi) so'zlari orqali tilning murakkabligi ochib beriladi.

Zid ma'noli so'zlar: o'zaro qarama-qarshi va zid ma'no bildiradigan so'zlardir. Testkari ma'nodagi tushunchalarni taqqoslash orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Masalan, yaxshi – yomon, katta – kichik, baland – past, oq – qora kabi so'z juftliklari bolalarning tahlil qilish qobiliyatini oshiradi[4].

Interaktiv metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Bu metodlar o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantiradi, kreativ fikrlashni rivojlantiradi va guruhda ishlash ko'nikmalarini oshiradi. Interaktiv metodlar quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

Venn diagrammasi: Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni tahlil qilish uchun Venn diagrammasidan foydalanish o'quvchilarga so'zlar o'rtasidagi farqlarni va o'xshashliklarni ko'rsatib beradi. Bu metod so'zlarni vizual ravishda taqqoslashga imkon beradi.

O'yin metodlari: O'yinlarni o'qitishda qo'llash o'quvchilarni faollashtiradi va so'zlarni qiziqarli va interaktiv tarzda o'rganishga imkon yaratadi. Masalan, so'zlar ombori o'yinida o'quvchilar birgalikda so'zlar yig'ib, ular orasidan ma'nodosh yoki zid ma'noli so'zlarni ajratadilar. Yoki shakldosh bo'lgan so'zlarni yig'ib chiqadilar. So'zlarni uch guruhga ajratish mobaynida bolalar sinonim, antonim va omonim so'zlarni yaxshiroq ajratish imkoniga ega bo'ladilar.

Zanjir metodi: Zanjir metodini o'tilgan darsni mustahkamlash qismida foydalansak darsni yanada qiziqarli va jonli olib borgan bo'lamiz. O'yin tartibi shundayki: birinchi partadagi o'quvchi mavzudan bitta yangi o'rgangan so'zini aytadi, keyingi ishtirokchi esa o'sha birinchi ishtirokchi aytgan so'z bilan birgalikda o'zi ham yangi bitta so'zni aytadi. Shu tartibda o'yinimiz davom etadi. O'yin davomida so'zlarni unutib qo'ygan o'quvchilar o'yindan chetlashtirilib boraveradi. O'yin so'ngida qolgan bitta ishtirokchi g'olib bo'ladi va o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Bu metod o'quvchilarni nafaqat yangi o'rgangan so'zi esida saqlashga yordam beradi balki, uni xotirasi va diqqatini ham rivojlantiradi.

Yuqoridagi metodlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni o'rganishda faolliklarining oshishiga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va til boyligini kengaytiradi. Bu metodlardan unumli va samarali foydalanish, albatta, pedagogning bilim va malakasiga hamda bolalarning darsdagi faolligiga bog'liq holda amalga oshadi. O'qituvchi bu metodlarni to'g'ri va aniq qo'llay olishi juda ham muhimdir.

XULOSA: Ushbu maqolada ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar haqida ma'lumotlar keltirildi. Interaktiv metodlar va ularning qo'llanilishi, interaktiv metodlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z boyligini oshirish, tahliliy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali vosita ekanligi haqida so'z yuritilgan. Xulosa qilib aytganda, bunday tartibdagi metodlar dars samaradorligini nafaqat oshiradi balki, o'quvchilarni harakatga undaydi va ularni o'rganishga, izlanishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Shuning uchun har bir darslarda shu turdagi turli xil metodlardan foydalanib dars o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Metodlar o'quvchilarning til boyligini kengaytirishga, ijodiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlarning dars jarayoniga tatbiq etilishi boshlang'ich ta'limda til o'rganishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu interaktiv metodlar dars jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli ham qiladi, bu esa ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. "Ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlari", Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ta'lim to'g'risida", 2020.
3. O'.J. Yo'ldoshev tahriri ostida. Umumiy pedagogika. –T.: «Fan va texnologiya», 2017, 215-219-betlar.
4. Rasulov N. R. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi", T.: O'zbekiston, 2020 , 215-bet.
5. Akramov M. B. "Interaktiv metodlar: Nazariya va amaliyot", Samarqand: Zarafshon, 2019, 14-bet.
6. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" – T.: "LESSON PRESS", 2017, 95-112- betlar.

INNOVATIVE
ACADEMY